



## THE CREATIVE CONTRIBUTION OF SCHOLAR MAMAJON RAHMONOVICH RAHMONOV TO UZBEK THEATER ARTS

*Guzal Nuritdinovna Kadirova*

*Independent researcher at the Department of Philosophy  
Faculty of Social Sciences, National University of Uzbekistan  
Tashkent, Uzbekistan*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** epic poetry, poetry, treatise, literary, teletheater, architect, architect.

**Received:** 16.09.25

**Accepted:** 17.09.25

**Published:** 18.09.25

**Abstract:** In this article, during the research activity of the scientist Mamajon Rahmanov, the stages of development of the Uzbek national theater art, from the history of its emergence to the present, are studied, and the literature and articles published on his work are studied and analyzed. what is done is highlighted. Mamajon Rakhmanov's books covering the field of theater studies are as rich in content as the articles written by him are unique. He has been actively participating in several newspapers and magazines of our republic with a series of articles written on the development of theater art and theater criticism. In each of his articles and monographs, the scientific and practical activities carried out with a number of innovations in the field of theater are covered.

### O'ZBEK TEATR SAN'ATIDA OLIM MAMAJON RAHMONOVICH RAHMONOVNING IJODIY FAOLIYATI

*Guzal Nuritdinovna Kadirova*

*Ijtimoiy fanlar fakulteti,  
Falsafa kafedrası mustaqil izlanuvchisi  
O'zbekiston Milliy universiteti  
Toshkent, O'zbekiston*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** epikdazfamonlik, poeziya, risola, adabiy, teleteatr, me'mor, mutassil.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada olim Mamajon Rahmonovning tadqiqotchilik faoliyati davomida o'zbek miliy teatr san'atining, paydo bo'lish tarixidan boshlab, to shu kungacha bo'lgan taraqqiyot bosqichlarini o'rganib, o'z ijodida chop etilgan adabiyotlar

va maqolalarining o'rganib, tahlil qilingani yoritilgan. Mamajon Rahmonovning teatrshunoslik sohasini yorituvchi kitoblari mazmuni qanchalik boy bo'lsa u tomondan yozilgan maqolalar ham shu qadar noyobdir. Teatr san'atining rivoji hamda teatr tanqidchiligi hususida yozilgan turkum maqolalari bilan respublikamizning bir qancha gazeta va jurnallarida faol ishtirok etib keladi. Uning yozgan har bir maqola va monografiyalarida teatr sohasida olib borilayotgan qator yangiliklar bilan olib borilgan ilmiy-amaliy faoliyati yoritilgan.

---

### ТВОРЧЕСКАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ УЧЁНЫЙ МАМАДЖОНА РАХМОНОВИЧА РАХМОНОВА В УЗБЕКСКОМ ТЕАТРАЛЬНОМ ИСКУССТВЕ

*Гузаль Нуритдиновна Кадырова*

*Независимый исследователь кафедры философии,*

*Факультет социальных наук, Национальный университет Узбекистана*

*Ташкент, Узбекистан*

---

#### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** эпическая проза, поэзия, трактат, литературный, телетеатр, меммор, мутассиль.

**Аннотация:** В данной статье в ходе исследовательской деятельности ученого Мамаджона Рахмонова он изучил этапы развития узбекского национального театрального искусства от истории его возникновения до наших дней, изучил и проанализировал литературу и статьи, опубликованные по его творчеству. Содержание книг Мамаджона Рахмонова, охватывающих область театроведения, столь же богато, сколько и написанные им статьи редки. Он активно участвует в ряде газет и журналов нашей республики с серией статей, посвященных развитию театрального искусства и театральной критики. В каждой его статье и монографии освещена научная и практическая деятельность, осуществленная с рядом новшеств в области театра.

**Kirish.** O'zbek teatr san'ati tarixini o'rganishda O'zbekiston Fanlar Akademiyasi akademigi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi Mamajon Rahmonovich Rahmonov (1914-2010 yillar yashagan)ning ijodiy faoliyati muhim o'rin tutadi. Yetuk olim Mamajon Rahmonov san'atshunoslik sohasiga tegishli o'nlab kitoblar muallifidir. Ammo, biz maskur maqolada ustozning «Xamza va o'zbek teatri» va ikki jildli «O'zbek teatr tarixi nomli kitoblarini o'rganib chiqib, tahlil qildik.

«Xamza va o‘zbek teatri» kitobi 1959 yil Toshkent shahridagi «O‘zbekiston adabiyoti» nashriyotida chop etilgan. Mazkur kitobni yozishdan maqsad o‘zbek xalqining buyuk shoiri, yozuvchi va dramaturg Xamza Xakimzoda Niyoziyning teatr san’ati rivojiga qo‘shgan ulkan hissasi hamda uning tomonidan yozilgan qator dramalarni o‘rganish bilan birgalikda, yozuvchilik borasida o‘tkir qalam sohibi ekanligi haqida so‘z boradi. Ma’lumki, Xamza Xakimzoda Niyoziy nafaqat teatr san’atining, balki, o‘zbek adabiyotining yirik namoyondalaridan biridir. Uning tomonidan yozilgan har bir adabiy asarlari, shox u she’r shaklida bo‘lsin, xoh drama bo‘lishidan qat’iy nazar hech bir adabiyot shinavandasini e’tiboridan chetda qolmaydi.

Asosiy qism. Mamajon Rahmonov esa, aynan shu kabi fikr mulohazalarini ushbu kitobda umumlashtirdi. Dramaturgning adabiyot sohasiga qo‘shgan hissasi naqadar ulkan bo‘lsa, teatr san’ati rivoji yo‘lida amalga oshirgan ishlari bundan kam emas. Vaholanki, o‘zbek teatr san’atining rivoji bevosita Xamza Xakimzoda Niyoziy nomi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Kitobda u teatrda faoliyat ko‘rsatgan yillarda amalga oshirgan ishlari, yozgan dramalari va ular asosida sahnalashtirilgan qator spektakllar soni hamda badiiy qiymati haqida aytib o‘tilgan. Ayniqsa, uning o‘sha paytlarda sahnalashtirilgan «Maysaraning ishi», va «Boy ila xizmatchi» kabi bir birini takrolamas dramalari sahna yuzini ko‘radi. Bu hol esa, o‘zbek teatr san’atiga yangidan yangi o‘zgarishlarini, janrlarni shuningdek, turli shakllarni olib kiradi. Mazkur o‘zgarishlar bo‘lsa o‘sha davrda teatr uchun katta yutuq edi. Murakkab bir davrda ham davlatni ham jamiyatni ko‘nglini ola bilish juda mushkul vazifa edi. Biroq, dramaturg bu jarayonlarni to‘g‘ri tahlil qilgan holda o‘zbek teatr rivoji uchun baholi qudrat harakat qildi. Shu bois u o‘zbek teatr san’atining shakllanib, ravnaq topishida boshlang‘ich kuch bo‘lib xizmat qildi. Uning nomi bevosita o‘zbek teatri bilan uzviy bog‘landi.

Mamajon Rahmonov ham uning ijodiy faoliyatini o‘rganib, teatr sohasi bilan dramaturg nomining bog‘liqlik tomonlarini yoritib bera oldi. Xamza Xakimzoda Niyoziy tomonidan yaratilgan yangiliklar, repertuarlar teatr san’atini boyitishda ham nazariy ham amaliy manba bo‘lib xizmat qildi va hozirgi kungacha o‘z badiiy qiymatini yo‘qotmagan holda davom etib kelmoqda. Xamza Xakimzoda Niyoziy o‘z davrinig jonkuyari, xalq dardining davosi shuningdek, o‘zbek teatr san’atining yo‘lboshchisi hisoblangan. Zero, mustabit tuzumida uning nomi qora xarflar bilan aytilgan bo‘lsa-da, ammo, yurtimiz mustaqillikka erishgach, uning nomi oqlandi. Men bu so‘zlarni bejiz aytib o‘tganim yuq, chunki, uning nomi nafaqat o‘zbek san’atining balki, o‘zbek madaniyatida ham o‘chmas iz qoldirgan.

Muallif Mamajon Rahmonov esa, aynan shu kabi fikr va mulohazalarni bayon qilgan holda, dramaturgning ijodiy qirralarini, uning buyuk qalam sohibi ekanligi shuningdek, o‘zbek teatrlarining unitilmas ruhi bo‘lib qolganligini ta’kidlab o‘tishni joiz deb bildi. Ustozning teatr san’atiga doir yaratilgan kitoblari orasida bu kabi badiiy qiymatga ega bo‘lgan adabiyolar ro‘yhati ko‘pchilikni

tashkil qiladi. Uning birgina yozilgan manbalari orqali O'rta Osiyo hududida qadimdan shakllanib tobora rivoj topib kelayotgan teatr san'at turining barcha elementlari, hususiyatlari bilan birgalikda erishgan yutuqlari haqida to'liq tasavvurga ega bo'lasiz.

Xususan, bu borada uning 1975 yilda G'ofur G'ulom nomidagi «Adabiyot va san'at» nashriyoti chop etiladi. Ushbu kitob ikki jildidan iborat. «O'zbek teatri» (qadim zamonlardan XVIII asrga qadar) hamda O'zbek teatr tarixi» (XVIII asrdan XX asr avvaligacha) deb nomlangan ilmiy monografiyalar teatrshunoslik ilmidagi alohida qimmatga egadir. Ushbu tadqiqotlar orqali Mamajon Rahmonov birinchilardan bo'lib, O'zbekistonda madaniyat va san'at, hususan, teatr san'ati «Oktabr Revolyutsiyasidan» dan keyin emas, balki, juda qadim zamonlarda, bundan ikki yarim ming yil ilgari ham mavjud bo'lganligini ilmiy asoslab bergan. Xuddi shu asar rus tilida qayta tarjimadan chiqqach, 1983 yili Xamza nomidagi O'zbekiston Davlat mukofotiga sazovor bo'lgan.

Olimning mazkur kitobi besh bobdan tashkil topgan bo'lib, «O'zbek teatrining ilk chashmalari», «Qadimgi O'rta Osiyo tuprog'ida Ellin teatri (eramizdan oldingi III-I asrlar), «Kushon davriga nazar», «Ilk o'rta asr teatri (V asrdan X asrgacha), va «Feodalizmning rivoji hamda o'zbek teatrining mashaqqatli yo'llari (X asrdan XVIII asrga qadar) nomli ketma ketliklardan iborat holda yozilgan.

Kitobda Kushon shahridagi ilk o'zbek teatr truppassi va uning asoschisi buyuk dramaturg Xamza Xakimzoda Niyoziyning foalियati haqida so'z boradi.

O'zbek teatr tarixi kitobining ikkinchi jildida 18 asrdan so'ng, O'rta Osiyo hududidagi o'zbek teatrshunoslik sohasida yuz bergan voqea hodisalar rivoji haqida so'z boradi. Bu davrga kelib, teatr san'ati qay tarzda ijod qilgani, teatrshunoslik sohasida yangi omillarning paydo bo'lishi, ya'ni turli janr va shakllarning yuzaga kelishi va boshqa shu kabi o'zgarishlar shuningdek, ularning asoschilari haqida so'z boradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yuqorida ko'rib o'tilgan har ikki kitobning mazmun va mohiyatini teatr sohasining rivojlanish davridagi bosqichlari egallaydi. Ustoz bu kabi manbalar orqali o'zbek teatr tarixini uzoq bosqichga ega ekanligini o'rganib, ilmiy jihatdan ta'kidlab berdi. Zero, bu o'zbek teatr sohasidagi buyuk qadam bo'ldi.

Bu kitoblardan tanqari uning minglab maqolalarida o'zbek teatrining ijodiy faoliyati to'g'risida atroflicha fikr yuritiladi.

Shu bois olimning «O'zbek teatri tarixidan», «Kushon davri teatr san'ati», Qadimgi o'zbek teatr tarixidan», «O'zbek teatrining me'mori», «Navoiy asarlari sahnada» deb nomlangan qator turkum maqolalari milliy teatrimizning qadimiy san'at turlaridan ekanligini isbot qiladi. Maqolalar ichida har bir davrning teatr olamiga tegishli sahifalari joy olgan. Bu sahifalar to'g'risida biz o'rganib chiqqan quyidagi maqolalar orqali yana ham batafsil ma'lumot beramiz.

Mamajon Raxmonovning teatrshunoslik sohasini yorituvchi kitoblari mazmuni qanchalik boy bo'lsa u tomondan yozilgan maqolalar ham shu qadar noyobdir. Teatr san'atining rivoji hamda teatr tanqidchiligi hususida yozilgan turkum maqolalari bilan respublikamizning bir qancha gazeta va jurnallarida faol ishtirok etib kelayapdi. Uning yozgan har bir maqola va monografiyalarida teatr sohasida olib borilayotgan qator yangiliklar bilan tanishib borasiz. Albatta, bu ham bo'lsa olimning katta yutigidir. Zero, teatr san'ati sohasida hali hech kim bu darajaga erisha olmadi. Lekin, bunday muvaffaqiyatlarning tag tomirida uzoq hamda mashaqqatli mehnat xukm surgan. San'atshunoslik sohasining rivoji uchun ustozga uzoq va zarvorli yo'llar duch kelgan. Bu yo'llarning har bir pog'onasi Mamajon Raxmonovdan kuch va iroda talab etgan. Nafaqat biz san'at soxasida tahsil olayotgan talabalarni balki, uning hayoti va ilmiy faoliyati bilan biroz bo'lsa ham tanish insonlarni hayratga soladi desak mubolaga bo'lmaydi. Fikrimiz dalili sifatida uning quyidagi maqolalari haqida to'xtalib o'tmoqchimiz.

«O'zbekiston madaniyati» gazetasining 1966 yil 23 iyul sonida nashr qilingan «G'ulom Zafariy dramaturgiyasi va uning sahna tarixi» nomli maqolasida dramaturgning ijodiy hayoti, poeziya, dramaturgiya, musiqa va teatr sohasidagi faoliyati hali atroflicha o'rganilmaganligi, shuningdek o'quvchilarga taqdim qilinayotgan mazkur maqola faqatgina G'ulom Zafariyning o'zbek teatri tarixida tutgan o'rni hamda u yozgan pyesalarning sahna tarixi to'g'risida ma'limotlar berilgan.

Ma'lumki, O'zbek teatrlarining yigirmanchi yillardagi tarixini G'ulom Zafariysiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Chunki, u bu yillarning ko'zga ko'ringan teatr arboblardan biri bo'lib hurmat qozonganligi borasida atroflicha fikr yuritilgan. Shu bilan bir qatorda uning faqat dramaturgiya emas, balki, Xamza Xakimzoda Niyoziydan keyin o'zbek musiqali teatri poydevoriga asos solganlardan biri bo'lib o'zbek teatri tarixida qolganligi alohida e'tirof etilgan. Uning ijodini o'rganish o'sha davrda o'ta murakkab va ma'suliyatli masalalardan biri edi. Chunki, shoirning yashagan va ijod qilgan davrining o'zi murakkab, sinfiy guruhlar keskinlashgan palla edi.

Zafariyning dramaturgiya dunyosi juda go'zal va nafis bo'lgan. U eski dunyoning mudhish hayotidan nafratlanardi. Ammo, bu og'ir ziddiyatlarga qaramay uning dramaturgiyasi ko'zga tashlana boshladi va mavzu jihatdan bir-birini takrorlamaydigan dramalar va kichik hajmdagi musiqali sahna asarlarini yozdi. 1916 yildan 1920 yillar orasida ayniqsa dramaturgning ijodi gulladi. Bu yillar davomida «Baxtsiz shogird», «Xalima», «Bahor», «Binafsha», «Turgunoy», «Tilak», «Ona qabri ustida» kabi katta-kichik tarzidagi musiqali asarlar yaratdi. Mazkur asarlar 1920 yilda yaratilgan «Halima» musiqali dramasi katta muvaffaqiyatlarga sazovor bo'lgan. Bu dramada eskiliklardan ozod bo'lish, yangi hayotga kirib borish kabi masalalar ko'rsatib berilgan. Maqolada ham aynan ana shu dramadan parcha keltirib o'tilgan. Muallif Mamajon Rahmonov esa, shunday bir katta asar mazmunini maqola xajmida ochib bera oldi. Bundan tashqari G'ulom

Zafariyning o'zi ham teatr san'ati sohasida qancha amaliy ishlarni qilganligi, vatanimizning turli shahar va qishloqlarida kezib «El kuylari» nomli to'plam yaratganligi qayd etilgan.

Mamajon Rahmonov mazkur maqolasi orqali bu dramaturgning qanchalik boy meros yozib qoldirganligiga, shu bilan birga uning bir nechta poemalari topilmaganligi to'g'risida to'xtalib o'tgan.

Binobarin, G'ulom Zafariyning o'zbek teatri san'ati va adabiyotining rivojlanishida hayoti va ijodiy merosini chuqurroq o'rganish lozimligini e'tirof etgan.

Maqolani mutoala qilgan har bir kitobxon go'yoki bir badiiy asar o'qib chungandek o'ziga ma'naviy ozuqa oladi. Buning sababi shundan iboratki, bir maqolaning o'zida ham shoirning hayoti va bir vaqtning o'zida uning mashhur badiiy dramasidan bohabar bo'lishimiz mumkin. Bunday hol esa, kitobxonni chuqur bilimga hamda o'zaro mulohazaga chorlaydi. Shuni qayta ta'kidlash joizki, maqolada berilgan har bir ma'lumot katta bir voqea sharhiga o'hshaydi.

Mamajon Rahmonov ushbu maqola orqali o'zbek teatr tarixida yashab ijod qilgan yana bir buyuk siymo, iqtidorli yozuvchi va dramaturg G'ulom Zafariyning bu soha ravnaqi uchun qo'shgan hissasi, u olib borgan amaliy ishlari, hamda yaratgan asarlari hozirgi davr san'atining noyob hazinasiga aylanib qolganligini ta'kidlab o'tgan.

Ustozning navbatdagi ijod namunasi 1976 yil O'zbekistan Sovet Ensiklopediyasining VII jildida nashr qilingan, «Moskva o'zbek drama studiyasi» nomli maqolasidir. Maqolada mazkur studiyasida to'liq ma'lumot berilgan.

«Moskva o'zbek teatr studiyasi» - o'zbek professional aktyorlari va rejissorlarini tayyorlovchi maktab bo'lib faoliyat olib borgan. O'zbekistan hukumatining qarori bilan 1924 yil Moskva shahrida tashkil qilingan. 1924-1927 va 1927-1930 yillar davomida ikki marotaba kadrlar yetishtirgan. O'zbek teatrining Mannon Uygur, Y.Bobojonov, M.Muxamedov, Abror Xidoyatov, Sora Eshonturayeva, T.Sultonova, N.Nazrullayev, SHDayumov, S.Tabibullayev, Xojisshdosh Islomov, X-Latipov, Erkatsori Karimov kabi atoqli arboblarning studiyaning birinchi talabalaridir. Ikkinchi studiyada esa, J.Yo'ldoshev, Rahim Pirmuhamedov, N.Axmedova, B. Jalilov, P.Rahmonova, M.Xaydarov, A.Xasanov, M.Musayev, A.Islomov singari aktyorlar ta'lim olgan.

V.Kanyel, L.Sverdlin, R.Simonov, I.Tolchanov, va O.Basov kabi yirik rus san'atkorlari ularga sahna san'atidan dars berganlar. O'zbek aktyorlari o'tish davomida birinchi studiyada «Aks- sado», «Revizor», «Xasis», «Qorovul uyqusi» va ikkinchi studiya jamoalari bo'lsa, «Qon va suv», «Zo'raki tabib», «Skapen nayranglari» kabi spektakllarni ijro etganlar.

Ushbu maqola bizga ma'lum va mashhur bo'lgan studiya haqida batafsil bilishga ko'mak beribgina qolmay, o'sha davrda ijod qilgan san'atimizning taniqli va qobiliyatli aktyorlarimizning ijodlarini o'rganishimizda yordam berib kelmoqda. Ularning aktyorlik mahoratlaridagi sir-



asrorlarini o'rganish hozirgi paytda ijod qilayotgan va yetishib chiqayotgan yosh aktyorlarimiz uchun katta saboq bo'ladi.

Maqolada keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki o'zbek teatr san'ati Moskva teatr san'ati bilan o'zaro bog'lik tarzda faoliyat olib borgan.

«Moskva o'zbek drama studiyasi» tashkil topgan sanasidan ko'p o'tmay 1935 yil Muhiddin Qoriyoqubov tashabbusi va O'zbekistan hukumati qarori bilan Moskva Koservatoriyasi qoshida «Moskva opera stidiyasi» tashkil qilinadi. Bu studiya o'zbek opera san'ati uchun vokalisitlar, dirijyorlar, kompozitorlar, xormeysterlar tayyorlovchi maktab edi.

1935-1937 yillar Muhiddin Koriyoqubov, Halima Nosirova, Muxtor Ashrafiy, Mutal Burdonov, S.Yudakov, B.Mirzayev, Karim Zokirov kabilar ta'lim olganlar. 1939 yil esa, bu studiya ikkinchi marotaba tashkil qilingan. Bu davrda N.Doshimov, S.Xujayeva, E.Jamilova singari yoshlar ta'lim olishgan.

Ulug' vatan urushi yillarida studiya vaqtinchalik o'z faoliyatini to'xtatib qo'ygan. 1947 yil yana qayta ochilgan. Shu yili navbatdagi guruh vakillari S.Dobulova, Sh.Raximova, S.Yarashev, A.Azizov va bonshalar tahsil oldilar. Studiya o'z faoliyatini 1951 yilgacha davom ettirdi.

Ma'lumki, bu studiya tashkil topgach, uni boshqargan M.Rahmonov keyinchalik butinlay mana shu bo'limga rahbar etib tayinlandi. Uning tashabbusi bilan studiya yanada yuksak natijalarga erishdi.

Yuqorida ko'rib o'tilgan maqolalar tahlili sifatida shuni aytib o'tish joizki, har ikkala studiyaning tashkil topib rivojlanishida Mamajon Rahmonovning tashabbusi kattadir. Uning o'zbek san'atining barcha sohalarini bo'yicha olib borgan islohatlari natijasida bugungi kunga kelib tobora ravnaq topayotgan o'zbek milliy san'atimiz erishgan yutuqlarining negizini tashkil qiluvchi maskanlar aynan mana shu studiyalardir. Demak, mazkur studiyalar mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan A.Navoiy nomidagi «Opera va balet» teatri hamda «Musiqali va drama» teatrlari sahnalarida ijro etgan iqtidorli san'atkorlarimiz ta'lim olishgan.

O'zbekiston Sovet Ensiklopediyasining X, XI, XII jildlarida chop etilgan «Teatr», «Teatrshunoslik», va «Xamza va uzbek teatri» nomli maqolasida, teatr san'atining lug'aviy ma'nosi, kelib chiqish tarixi, uning elementlari hamda vositalari haqida batafsil ma'lumotga ega bo'lishimiz mumkin. Bundan tashqari, teatr san'atining qaysi san'at sohalarini qamrab olgani to'g'risida aytib o'tilgan. Teatr san'ati tarixi chuqur yoritib berilgan. Qadimiy teatr turlari qanday ko'rinishda bo'lgani, ularning tarkibi va qay yo'sinda rivoj topganini bilib olishimiz mumkin.

Bizga ma'lumki, san'atshunoslik fanining yunalishlaridan birini teatr san'ati egallaydi. Teatr san'atini o'rganuvchi fan esa, teatrshunoslikdir. Teatrshunoslik san'atshunoslik tarmog'i bo'lib, teatr haqidagi fandır. Bu fan teatr tarixi va nazariyasini, dramaturgiya, rejissura, teatr arxitekturasi, dekoratsiya san'ati, teatr ta'limi, teatr tanqidchiligi hamda shu kabi bir qator masalalarni o'z ichiga

oladi. Teatrshunoslik fanining ahamiyati juda katta. Chunki, teatr san'atida paydo bo'layotgan muammo va kamchiliklarni oldini olishda ularni bartarf etishda bir qancha amaliy vazifalarni amalga oshiradi.

Mazkur atamaga bejiz ypg'y berganimizning boisi shundaki, olimning «Teatrshunoslik» nomli maqolasida asosiy e'tibor ana shu hususiyatlarga qaratilgan.

Maqolani mutoala qilganlar bir kitobxon teatrshunoslikning mustaqil fan sifatida qachon shakllanganligi va boshidan kechirgan jarayonlarini bilib olishilari mumkin.

Bu ikki maqolaning shu qadar aniq va ravon yozilgani xattoki bu sohadan habari bo'lmagan o'quvchilarga ham birdek manzur bo'ladi.

So'ngi tahlil qiladigan maqolamiz «Xamza nomli teatr» deb nomlanadi. Xamza nomidagi O'zbek davlat akademik teatri 1919 yili Toshkentdagi K.Marks nomidagi O'zbek sovet drama truppasi sifatida tashkil topgan. Tashkilotchi va rejissor Mannon Uygur edi. Dastlabki ishtirokchilar A.Xidoyatov, M.Muxamedov, F-Zafariy, F. Umarov, Sh.Najmiddinov, MDoriyeva va boshqa havaskorlar bo'lib, keyinroq B.Doriyev, YE.Bobojonov, O.Jalilov, S.Olimov, Z.Said, R.Pirmuhamedov, A.Ibrohimov kabilar kelib qo'shilishgan. Bu truppaning tashkil topishida Xamza Xakimzoda Niyoziy va uning dramaturgiyasining hissasi katta.

Bu davrda Xamza teatri o'zbek madaniyatining markaziga aylandi. U rus teatri tajribalari bilan o'zbek adabiyoti va san'atining ilg'or an'analarini uygunlashtirdi.

**Xulosa.** 1930- yillarga kelib, teatr jiddiy ijodiy yutuqlarni qo'lga kiritgan. Ikkinchi jahon urushi davriga kelib, vatanparvarlik g'oyalarini ifodalovchi spektakllar teatr repertuaridan joy oldi. 1950-yillarda teatr jamoasi safi kengaydi. 1960-1970 yillarda esa, epikdazfamonlik, maishiy-psixologik drama, komediyalar, satirik va lirik pyesalar sahnalashtirildi.

Hozirgi paytga kelib esa, bu an'ana davom etib kelmoqda. Barchamizga ma'lumki bugungi kunda mazkur teatr nomi «O'zbek milliy drama teatri» maqomi bilan o'zgartirilgan.

Yuqorida zikr etilgan kitoblar, maqolalar va monografiyalar yuzasidan umumiy xulosaga keladigan bo'lsak, bu noyob qo'lyozmalar bugungi kunga kelib ham o'z ahamiyatini o'zgartirmagan holda saqlanib kelmoqda.

Mazkur manbalar Mamajon Rahmonov ilmiy ishlarining bir qismi ham emas. Biroq, ushbu malakaviy bitiruv ishda ko'rib chiqilgan va tahlil qilingan ilmiy manbalar orqali teatr san'atining naqadar sir-asrorlarga boyligini ko'rib hayratga tushdik desak mubolaga bo'lmaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. «O'zbek opera va balet teatrining taraqqiyot yo'llari». «Qizil O'zbekistan» gazetasi, 1950 yil, II.VI.
2. M.Rahmonov. "Teatr" O'zbekiston Sovet Ensiklopediyasi, 1978 yil, X jild.



3. M.Rahmonov. “O‘zbek teatri” (qadim zamonlarda XVIII asrga qadar) hamda “O‘zbek teatri tarixi” ( XVIII asrdan XX asr avvaligacha). O‘zbekiston SSR “Fan” nashriyoti, Toshkent, 1975 yil.
4. “O‘zbek teatr tarixidan” “Sharq yulduzi” jurnali, 1957 yil, 9-son.
5. “O‘zbek sovet teatrining yaratilishi”. “Sharq yulduzi” jurnali, 1958 yil, 3-son.
6. M.Razmolov. «O‘lka namuna dramatik teatri», O‘zbekiston Sovet Ensiklopediyasi, 1978 yil, XI jild.
7. M.Rahmonov. «Xamza nomli teatr», O‘zbekiston Sovet Ensiklopediyasi, 1979 yil, XII jild.
8. M.Rahmonov “Teatrshunoslik”, O‘zbekiston Sovet Ensiklopediyasi, 1978 yil X jild.